



HIGH LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL CULTURE GUARANTEE OF INTERPRETATION OF LAW NORMS

Klichbayev Muhammad Xamroyevich ¹

¹ Tashkent State Law University, first-year master's degree in Public
Administration Law (Uzbek)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4742146>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 30th April 2021

KEY WORDS

Legal consciousness,
interpretation of legal
norms, legal literacy,
professional interpretation,
legal culture, rule of law

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the role of legal consciousness and culture in the interpretation of legal norms, the effective implementation of interpretation activities, increasing the legal literacy of citizens and officials, eliminating shortcomings in the interpretation of legal norms. The article develops scientifically based proposals to increase legal literacy in the country, to improve the mechanism of interpretation of legal norms.

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING YUKSAKLIGI HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH KAFOLATI

Klichbayev Muhammad Xamroyevich ¹

¹ Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Davlat boshqaruvi huquqi (o`zbek) yo`nalishi
birinchi kurs magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021
Ma`qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Huquqiy ong , huquq
normalarini sharhlash,
huquqiy savodxonlik,
kasbiy sharhlash, huquqiy
madaniyat, qonun
ustuvorligi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola huquq normalarini sharhlashda huquqiy ong va madaniyatning o`rni, sharhlash faoliyatini samarali amalga oshirish, fuqarolar va mansabdor shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquq normalarini sharhlashdagi kamchiliklarni bartaraf etishni tahli etishga bag`ishlangan. Maqolada mamlakatimizda huquqiy savodxonlikni oshirish, huquq normalarini sharhlash faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo`yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Huquq normalarini sharhlash masalasi hozirgi davr huquqiy jarayonlaridagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Huquqni sharhlash jarayoni orqali huquqdagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga

chiqadi va ularga asosli izoh beriladi. Normativ-huquqiy hujjatlarni hamma birdek tushunishi uchun albatta ular sharhlanishi lozim. Huquqiy madaniyat va ongning rivojlanishida huquqni sharhlash muhim rol



o`ynaydi.

Huquqiy munosabatlar o`rnatilishida har bir shaxsdan yetarlicha huquqiy ongga ega bo`lish talab etiladi. Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lib, jamiyat a`zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o`z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o`z ichiga oladi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy ongni individual, guruh, korporativ, ommaviy, ijtimoiy kabi turlari qayd etilgan [1]. Shaxsda huquqiy ong darajasi qanchalik yaxshi bo`lsa, mavjud huquq normalarini tushunish nisbatan oson bo`ladi. Huquqiy ongning tarkibi axborot va baholashdan iborat hisoblanadi. Ijtimoiy munosabat ishtirokchilari huquqiy ong mavjudligi sababli ham qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tushunishga erishadi.

V.M.Korelskiy va V.D.Perevalov fikricha, huquqiy ong ikkita tarkibiy qismdan huquqiy psixologiya va huquqiy mafkuradan iborat [2]. Huquq va huquqiy ong o`rtasida chambarchas bog`liqlik mavjud. Ushbu bog`liqlik huquqiy ongning huquqqa ta'sirida ham, aksincha huquqning huquqiy ongga ta'sirida ham namoyon bo`ladi. Buning sababi shundaki, aynan huquqiy ong ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qabul qilish zarurati va ehtiyoji to`g`risida g`oyalarni rivojlantiradi. Normativ-huquqiy hujjatlarni yaratishda ishtirok etayotgan barcha subyektlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonun talablariga rioya qilish jamiyatning barcha a`zolarining huquqiy ongi darajasiga, ularning madaniyatiga bevosita bog`liqdir.

Huquqiy madaniyat darajasiga qarab, huquqiy ong turlari uchga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy huquqiy ong, odatda, o`z-o`zidan vujudga keladi va insonning

shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog`liq bo`lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi.

Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy-huquqiy haqiqatni u yoki bu darajada to`g`ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o`z ichiga oladi. Ilmiy huquqiy ong huquqni ijod qilish faoliyatining birinchi darajali manbayi bo`lgani uchun huquqiy amaliyotni takomillashtiradi.

Huquqshunoslarning kasbiy huquqiy ongi qonunga bo`ysunuvchi fuqarolarning huquqiy mulohazalaridan o`zlarining huquqiy me`yor va nuqtayi nazarlari, bilimining teranligi hamda katta hajmi va eng muhimi, huquq qoidalari va me`yorlarini qo`llashni bilishlari bilan farq qiladilar. Kasbiy huquqiy ong oliy o`quv yurtlarida ta`lim olish natijasida shakllanadi, so`ngra huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi[3].

Oldingi mavzularimizda sharhlash uni amalga oshirish subyektlariga ko`ra rasmiy va norasmiy sharhlash turlariga bo`linishini aytib o`tgandik. Norasmiy sharhlash ham o`z ichida oddiy, kasbiy, doktrinal (ilmiy) sharhlash turlariga bo`linadi. Huquq normalarini sharhlashda kasbiy huquqiy ong muhim ahamiyatga ega. D.A.Gavrilov huquqni muhofaza qilish organlari sharhlashining quyidagi funksiyalarini sanab o`tadi: axborot qidirish, tahlil qilish va umumlashtirish, malaka, nazorat, qonunchilikka yo`naltirish[4].

Sharhlovchi subyekt huquq normasi mazmunini to`g`ri anglasagina uni boshqalarga yetkaza olishi mumkin. Kasbiy sharhlashni amalga oshirish uchun kasbiy huquqiy ong yetarlicha bo`lishi lozim hamda u huquqiy faoliyat orqali takomillashib boradi. Huquq normasini qay darajada sharhlanishi sharhlovchining bilim va ong darajasi bilan belgilanadi. Huquq normasi mazmuni yetarlicha ochib berilishi sharhlovchi subyektga bog`liq.



Huquq normalarini doktrinal sharhlashda ilmiy huquqiy ong yetarlicha bo'lishi lozim. Chunki ushbu sharhlash - qoidalarning mazmunini aniqlashga va tushuntirishga qaratilgan intellektual jarayon bo'lib, amalga oshiriladigan huquqiy hodisalar ilmiy izlanishlar natijasida olimlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi [5].

Huquq normalarini sharhlash jarayoni jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga o'zini katta hissasini qo'shadi. Huquqiy madaniyat sharhlovchi subyektni huquq normalarini samarali sharhlashda o'zini beqiyos hisoblanadi. Davlatda huquq ustuvorligini ta'minlash uchun albatta qonunlarga rioya qilinishi hamda takomillashtirilib borilishi lozim.

Huquqiy madaniyat - jamiyatning huquq normalariga bo'lgan obyektiv munosabati bo'lib, o'z ichiga huquqiy bilimlar to'plamini qamrab oladi. E.V.Agranovskaya fikricha, huquqiy madaniyat jamiyatning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib, inson va huquq sohasida o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi [6]. Huquqiy madaniyat o'z navbatida qonunni tushunish va qabul qilish hamda unga ongli ravishda rioya etish va ijro etish kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi.

Har bir shaxsda huquqiy madaniyat rivojlanish darajasi huquqiy qadriyatlarni, yuridik xulq-atvorni o'zlashtirish mobaynida o'zgarib boradi. Jamiyatda huquq ustuvorligiga erishish faqat davlat organlariga emas, bevosita xalqqa ham bog'liq. Chunki huquq normalari jamiyatda o'rnatilishi xalqning irodasi bilan amalga oshadi. Buyuk yunon faylasufi Aflotun shunday degan edi: "Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o'rgansa, bu faqat uning o'ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi". Haqiqatdan ham, xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik

urinmasin, qonun ustuvorligini ta'minlash qiyin bo'ladi [7].

Jamiyatda o'rnatilgan huquq normalari va qoidalarga amal qilish fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Qonunga muvofiq ravishda harakat qilish uchun albatta qonunni yaxshi bilish lozim. Dunyodagi ko'plab demokratik davlatlar masalan, AQSh, Shvetsiya, Singapur kabi mamlakatlarda qonun ustuvorligi qattiq jazo choralari bilan emas, aholining huquqiy madaniyati orqali ta'minlandi. Chunki ushbu davlatlar aholisi jazo choralaridan qo'rqqanligi uchunmas, aksincha qonunni hurmat qilganligi sababli ham unga bo'ysunishadi.

Mamlakatimizda aholining huquqiy madaniyat darajasini oshirishga xizmat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilindi. Ushbu dasturni amalga oshirishda asosiy vazifalar etib quyidagilar belgilandi:

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish;
- barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish;
- aholining huquqiy savodxonligini oshirish; fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasini amalga oshirish uchun maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta'limini tashkil qilish chorasini ko'rish, ularga yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur [8].

Huquq normalarini sharhlash masalasi mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Sharhlash orqali davlat organlari qonunga muvofiq faoliyat olib borilayotganligi isbotlanadi, shu bilan birgalikda fuqarolarning



davlatning irodasini to'g'ri anglashi ta'minlanadi. Bunga erishish uchun huquq ijodkorligi subyektlari va huquq qo'llaniluvchi subyektlar ham yetarlicha huquqiy savodxonlikka ega bo'lishi lozim. Ushbu holatlarning o'zi ham huquqiy madaniyatning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda huquq normalarining sharhlash usullari va turlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sharhlash usullaridan ayniqsa mantiqiy sharhlashni amalga oshirishda huquqiy ong va madaniyat darajasi muhimdir. Chunki mantiqiy sharhlash usulidan ko'p hollarda faqatgina davlat organlari emas, oddiy fuqarolar ham ishtirok etadi. Misol uchun, Jinoyat protsessual kodeksining 23-moddasida "gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas" deb belgilangan. Mantiqiy sharhlash usuli orqali ushbu normadagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining aybdor ekanligini isbotlab berish majburiyati davlat organlari zimmasida ekanligini mantiqan sharhlashimiz mumkin.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi o'zaro chambarchas tushunchadir. I.A. Ivannikov huquqiy madaniyat tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritadi: huquq, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniylik va tartib, subyektlarning huquqiy faoliyati, huquqiy institutlar. A.B.Vengerov fikricha, huquqiy madaniyat huquqiy ongning yuqori shaklidir [9].

Fuqarolar qonunga to'liq itoat etishi uchun albatta uni to'g'ri anglashi lozim. Shu bilan birgalikda davlat organlari qonunni to'g'ri talqin qilishi shartdir. Normativ-huquqiy hujjatlar puxta tuzilishi lozim shundagina uni ijro etuvchilar ortiqcha huquq normasi qabul qilmaydilar. Huquq ijodkorligi jarayoniga ham huquqiy madaniyatning ta'siri katta hisoblanadi. Huquq ijodkorligi jarayoni

qanchalik sifatli bo'lsa, sharhlash mazmunli va oson kechadi, turli xil huquq normalari o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqmaydi. Yuridik kolliziyalar oldi olinadi. Huquqiy madaniyat bo'yicha xorijiy davlatlarga qarasa, Yaponiyada ko'chaga axlat tashash ta'qiqlangan. Shuningdek axlat tashaydigan idishlar jamoat joylari va ko'chalarga o'rnatilmagan. Shunga qaramay hamma joy ozoda. Ular ko'chaga axlat tashash qonunga zid ekanligini bilishadi va unga kamera o'rnatilmagan bo'lsa ham ushbu qoidaga rioya qilishadi. Albatta bu hodisa huquqiy madaniyat yuksakligidan dalolat beradi.

Hozirgi zamon yurisprudensiyasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish faqatgina davlatning emas, fuqarolarning ham vazifasidir. Huquqiy ongi yetuk bo'lgan shaxslargina o'zining huquqlarini to'liq talab qila oladilar. Huquq normalarini to'g'ri sharhlashda kasbiy sharhlashning hissasi katta. V.A.Petrushev kasbiy huquqiy sharhlashni vakolatli va vakolatga ega bo'lmagan sharhlashga bo'ladi. Uning fikricha, vakolatli sharhlash huquqshunos olimlar va huquqshunos-amaliyotchilar tomonidan amalga oshiriladigan huquq normalarini sharhlashdir. Huquqshunos bo'lmagan amaliyotchilar, maxsus huquqiy bilimlarga ega bo'lmagan shaxslarning huquqni sharhlashi huquqni vakolatsiz sharhlash sifatida tasavvur etiladi [10].

Yuridik va lingvistik bilimlarning uyg'unligi huquq normalarini qoidaga muvofiq sharhlashga xizmat qiladi. Yuridik tilni huquqshunos ham, tilshunos ham o'rganishi mumkin, lekin ularning tadqiqot obyekti turlicha bo'ladi. Huquqshunos qonunlarning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratsa, tilshunos esa normativ-huquqiy hujjat matnining leksik-grammatik jihatlarini tahlil etishga kirishib ketadi. Agar shu normativ-



huquqiy hujjat matni bir mutaxassis tomonidan lingvo-yuridik bilim doirasida o'rganilsa, bunday hujjat yuqori sifatga ega bo'ladi [11].

Huquqni sharhlovchi subyekt huquqiy bilimlar bilan birgalikda lingvistik bilimlarga ham ega bo'lishi lozim. Huquq normalasidagi matnning tuzilishi, egalik hamda shaxs-son qo'shimchalarini to'g'ri izohlash ham ma'suliyatli vazifadir. Konstitutsiyamizning 7-moddasida "Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi" degan qismi bor. Ushbu moddada muvoziy degan so'zni ma'nosini bilish uchun lingvistik bilimlarga ega bo'lish lozim. Muvoziy so'zi parallel so'zi bilan bir xil ma'noga ega.

Demokratik huquqiy davlat qurishda davlat apparati hamda fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatining yetukligi hal qiluvchi xususiyatga ega. Fuqarolarga huquqiy ong va madaniyatning yetishmasligi huquqiy nigilizm ya'ni huquqni mensimaslikga olib keladi. Jamiyatda bo'layotgan demokratik islohotlarning eng katta to'siqlaridan biri bu huquqiy nigilizm sanaladi. Bu esa o'z navbatida huquq normalarini sharhlash samaradorligiga jiddiy putur yetkazadi.

Huquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs huquqlari va erkinliklari hajmining kengayishi, ularning himoyalanganlik darajasining kuchaytirilishidir. Huquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hamda

madaniyatida uning oliy qadriyatining, ya'ni "barcha narsalarning mezonini bo'lgan inson"ning maqomini mustahkamlashga qaratilgan barcha huquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi [12].

Normativ-huquqiy hujjatlar ijobiy samara berish uchun yetarlicha asoslantirib sharhlash lozim. Huquq normalarini samarali sharhlashda huquqiy madaniyatning kognitiv tarkibiy qismi ham muhim rol o'ynaydi. Huquqiy madaniyatning kognitiv tarkibiy qismi amaldagi huquqiy tizim to'g'risidagi bilimlarning boshlang'ich darajasini o'z ichiga oladi, shuningdek, ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalar uchun zarur bo'lgan huquqiy normalarning ma'nosini to'g'ri tushunish vahuquqiy ma'lumotlarni olish va tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish qamrab oladi [13]. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aytadigan bo'lsak, huquqiy ong va madaniyatning yuksak saviyada bo'lishi huquqni sharhlovchi subyekt hamda fuqarolarga ham birdek ahamiyatlidir. Huquqni sharhlash jarayoni orqali huquqdagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarga yuzaga chiqadi va ularga asosli izoh beriladi. Yurtimizda huquq normalarini sharhlash faoliyatini yanada takomillashtirish lozim. Birinchidan, huquq normalarini sharhlovchi subyektlarini savodxonligini doimiy oshirish borish mexanizmini joriy etish; ikkinchidan huquq normalarini sharhlashda huquqiy ong va madaniyatning ta'siriga urg'u berish; uchinchidan fuqarolarning qonunlarga rioya qilish samaradorligini yanada oshirishni o'rganish maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стуканов, В. Г. Теоретико-методологические вопросы изучения правосознания / В. Г. Стуканов // Инновационные образовательные технологии. – 2013. – №1 (33). – С. 30-34.
2. Теория государства и права (под ред. В. М. Корельского и В. Д. Перевалова) с. 335-336.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2018. 280-b.
4. Гаврилов Д.А. Правоприменительное толкование. Автореф. дис... канд. Саратов, 2000. С. 5-6.
5. Георгий Н.Н. Доктринальное толкование норм права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Нижний Новгород – 2005.
6. Аграновская Е.В. Правовая культура и обеспечение прав личности / Е.В. Аграновская; Отв. ред. Е.А. Лукашева; АН СССР, Ин-т государства и права. – М.: Наука, 1988. - С.12-15.
7. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Т., Ўзбекистон. 2020. 108-б.
8. У. Таджиханов А. Саидов. Хукукий маданият назарияси. 1- том. Т., 1998. 33-Б.
9. Венгеров А. Б. Теория государства и права: учебник для юридических вузов. М.: Юриспруденция, 1999. 520 с.
10. Академический юридический журнал. - N.1. - 2005. -С.5-6.
11. Ш.Н.Кўчимов. Юридик тил назарияси ва амалиёти. - Т., 2017. 30-б.
12. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2018. 288-b.
13. Ловничая Т.Н. Формирование правосознания личности ребенка. М.: Волгоград, 2001.